

## INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TIL O'QITISHNING AFZALLIKLARI

**Adilova Saodat Abdurahimovna**

Nizomiy nomidagi TDPU Umumiy tilshunoslik kafedrasi professori v.b.,

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Mahmudova Diyora Mamirjon qizi**

Nizomiy nomidagi TDPU “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari, huquq ta’limi”

yo‘nalishi 102R-guruhi talabasi

Til ta’limini modernizatsiya qilish o‘quvchi-talabalarda umumi filologik madaniyatni hamda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishni taqozo etadi. Kommunikativ kompetentlik deganda aloqaga oid chuqur bilimga ega bo‘lishlik, bu boradagi o‘ziga xos omilkorlik, muloqotga kirishish uchun zaruriy bo‘lgan ichki imkoniyatlar tizimi tushuniladi. Ya’ni muloqotning vazifalari, aloqa-arahashuv jarayonining o‘ziga xosliklari, o‘rganilayotgan tildagi muloqot turlari va xususiyatlari, verbal va noverbal aloqa vositalari, tinglab tushunish va tushunish texnikasi, suhabatdoshlarning psixologik va kommunikativ tiplari, insonlarga ta’sir o‘tkazishning texnologiya va usullari kabilar haqidagi bilim, ko‘nikma, malakalar majmuyi kommunikativ kompetentlik deb ataladi.

Yuqorida keltirilgan bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirishda integrativ yondashuv va metodlarga tayanilmoqda. Ayniqsa, ikkinchi tilni o‘qitish metodikasida mazkur yondashuvning o‘rni beqiyosdir. Integrativ metod asosida tashkil qilingan darslarda tilning barcha sathlariga oid ma'lumotlar birgalikda, o‘zaro bog‘liqlikda o‘rgatiladi. Sof kommunikativ metoddan integrativ metodning farqi shundaki, integrativ metod asosidagi har bir darsda autentik matnlardan, audio materiallar, videotasmalardan faol foydalaniladi. Talabalar real hayotni aks ettiruvchi gazeta maqolasini o‘qish, o‘zbekcha qo‘sish tinglash, qo‘sish matni ustida ishlash, birorta o‘zbekcha film yoki spektakldan parcha tomosha qilish va uni tahlil qilish jarayonida o‘zbek mentalitetini, milliy qadriyatlar, tariximiz, bugungi kunimiz, san’atimiz kabilarni, hatto nutq jarayonidagi imo-ishoralarining ma’nosini o‘rganishga harakat qiladilar. Shevaga xos so‘zlarni hamda faqat og‘zaki nutqda uchraydigan shakllarni tinglab, tushunishga intiladilar, o‘qish, gapirish, yozish, tinglab tushunish amallarini bajaradilar. Bunda lingvistik atamalar deyarli tilga olinmaydi, grammatizmga berilib ketish holatlari kuzatilmaydi, til qoidalari talabalarning o‘zları tomonidan sodda shaklda keltirib chiqarilishiga erishiladi. Zarurat tug‘ilganda, murakkab nazariy ma'lumot jo‘ngina jumlalar bilan, terminlarni minimal miqdorda qo‘llagan holda beriladi.

Bizga ma'lumki, so‘nggi yillarda xorijiy davlat vakillarining O‘zbekistonga, o‘zbek tili va madaniyatiga bo‘lgan qiziqishi tobora ortib bormoqda. Hozirgi paytda chet eldag‘i bir necha universitetlarda o‘zbek tili ikkinchi til sifatida o‘qitilmoqda. Bunda qo‘llaniladigan metodlar, yondashuvlar, olinadigan natijalar tahlil qilishga va o‘rganishga loyiqdir.

Amerika Qo‘shma Shtatlari universitetlari qoshidagi Markaziy Osiyo tillarini o‘rganish institutlari va markazlarida o‘zbekcha sun‘iy til muhitini yaratish masalasi ijobjiy hal bo‘lgan; “Til ta’limiga ko‘maklashuvchi kompyuter resurslari” deb nomlangan laboratoriyada istalgan bosqich uchun multimedia dasturlari ishlab chiqilgan. Oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan fanlar, xususan, ikkinchi til bo‘yicha tuzilgan dastur (syllabus)lar alohida e’tiborga loyiq,

chunki aynan shu dasturlarda ko'rsatilgan talablar, mazmun, erishiladigan natijalar ro'yxati talabalarning nafaqat tilni bilishi, balki o'zbek turmush tarzi, madaniyatiga xos bo'lgan tushunchalardan xabardor bo'lishini taqozo etadi.

Shu bilan birga, integrativ metodda til ta'limidagi to'rt xil amal (gapishtirish, tinglab tushunish, o'qish, yozish)ni o'rganish va grammatik bilimlarni egallash zarurligi inkor etilmaydi. Aksincha, o'zbek tilini o'rgangan talabalar markazlashtirilgan tarzda Performance Testing Project (PTP) nomli sinov testlarini topshiradilar. Mazkur tekshiruvga oid yo'riqnomada talabaning tilni egallaganlik darajasini belgilash mezonlari keltirilgan. Ularga ko'ra, tilni bilishning boshlang'ich (novice 1, novice 2), o'rta (intermediate 1, intermediate 2) va yuqori (advanced 1, advanced 2) darajalari ajratiladi. Har bir daraja uchun leksik-frazeologik minimumni egallash, grammatik qoidalarni bilish, muayyan hajmda va murakkablikdagi matnlarni tinglab tushunish, tuzish, yozish, o'qish bo'yicha talablar ishlab chiqilgan, misollar yordamida tushuntirilgan. Topshirilgan imtihon natijalari talabaning keyingi faoliyati yoki ta'lif olishida muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Respublikamiz OTMlarida tahsil olayotgan turli millat vakillariga o'zbek tilini davlat tili sifatida o'qitishda ham integrativ yondashuvdan tobora kengroq foydalanilmoqda. Mazkur yo'naliishda yangi o'quv adabiyotlarini, elektron resurslarni yaratish va shu tariqa tillarni o'qitish metodikasini rivojlantirishga hissa qo'shish pedagog kadrlarning hamda bo'lajak o'qituvchilarning dolzarb vazifalaridan biridir.